


60. 21 dan 100 gacha bo'lgan sonlarning o'qilishi va yozilishi

Arab raqamlari
o'nliklar va birliklar
guruhlab sanash



Biz foydalanayotgan raqamlar arab raqamlari deyiladi. Qadimda odamlar bu raqamlarni arab tilida yozilgan kitoblar orqali o'rganishgan.

Matematikaga oid ilk kitobni xorazmlik buyuk matematik Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yozgan.



- Misrlilar 1 va 10 sonlarini quyidagi belgilar bilan ifodalashgan: 1 soni – | “tayoqcha”, 10 soni – ∩ “tovoncha”. Qadimgi Misrda 35 soni quyidagicha yozilgan: |||| ∩∩∩. Sonlarni o'qing va ularni raqamlar bilan yozing.



- Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.

29 = 20 + 9	42	96
37 = 30 +	11	86



- Tartib bilan sanang:

29 dan ... 37 gacha 48 dan ... 56 gacha 77 dan ... 84 gacha


Teskari tartibda sanang:

52 dan ... 47 gacha 93 dan ... 88 gacha 21 dan ... 14 gacha

60. 21 dan 100 gacha bo'lgan sonlarning o'qilishi va yozilishi



4. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Sonlarni oʻnliklar va birliklarga boʻling. Bir-biringizni tekshiring. Kim tezroq bajardi? Kim toʻgʻri bajardi?



5. O'quvchilar o'qituvchi bilan tarix muzeyiga borishdi. Muzeyga kirish uchun esa chipta sotib olish kerak. Chiptachi o'qituvchiga chiptalarni quyidagicha beshtalab sanab berdi: $5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5$. O'qituvchi nechta chipta sotib oldi?

[illegible]

6. Lolaning otasi kolleksiyachi. U har xil davlatlarning qadimgi tangalarini to'playdi. Tangalarni u maxsus albomda saqlaydi. Albomning har bir qatoriga 10 ta tanga sig'adi. Agar otasi 5 ta qatorni to'liq to'ldirgan bo'lsa, uning hammasi bo'lib nechta tangasi bor?

[illegible]

7. Qadimgi mayya xalqi ham sonlarni yozishda o'z belgilariga ega bo'lgan. O'ylab ko'ring, ularning sonlari qanday qoidaga asosan yozilgan? Sonlarni shunday usul bilan yozing.

7	12	10	19	9	3	11	16
							